

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
tizimida bank hisobvarag‘i shartnomasi va mijoz
hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatishga doir boshqa
shartnomalarni tuzish bo‘yicha Tavsiyalarga
— Ilova

Mijozlarga milliy va chet el valyutasidagi bank kartalari orqali xizmat ko‘rsatish bo‘yicha OMMAVIY OFERTA ShARTNOMASI

Ushbu Ommaviy oferta shartnomasi (keyingi o‘rinlarda “Oferta”) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq, yuridik shaxslarga korporativ bank kartalaridan foydalanish yuzasidan shartnoma tuzish bo‘yicha yuborilgan rasmiy ommaviy taklif bo‘lib hisoblanadi.

Ommaviy oferta shartnomasi Mijoz tomonidan bank hisobvarag‘i ochish yuzasidan murojaat qilingan arizani taqdim etish bilan yohud ushbu shartnomaga ilova qilingan arizani, belgilangan tartibda to‘liq to‘ldirilgan vaqtidan boshlab tuzilgan (akseptlangan) hisoblanadi hamda mijoz mazkur ommaviy oferta shartnomasining barcha shartlarini va Bank Tariflariga asosan to‘lovlarini to‘lashni istisno qilmasdan so‘zsiz qabul qilganligini anglatadi.

1.UMUMIY TAVSIFLAR

1.1. Korporativ bank karta- o‘z saqlovchisiga, ya’ni yuridik shaxsning vakolatiga ega xodimi yoki yakka tartibdagagi tadbirkorga karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini boshqarish imkoniyatini beradi;

1.2. Terminali - bank kartasining saqlovchisiga to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi va bajarilgan operatsiyalar bo‘yicha (qog‘oz yoki elektron shakldagi) sliplarni shakllantiruvchi moslama yoki dasturiy ta’minot;

1.3. Tranzaksiya - Bank kartasi saqlovchisi tomonidan xarid qilingan tovarlar, ish va xizmatlar uchun amalga oshirilgan to‘lov;

1.4. Bank kartasining blokirovkasi – Bank kartalarining amal qilishini to‘xtatish yoki uni bekor qilish bo‘yicha Bank tomonidan ko‘rilgan chora;

1.5. Emitent — bank kartasini emissiyasini amalga oshiruvchi, bank kartasining saqlovchilarini va ekvayerlar tomonidan bank kartalaridan foydalanilgan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish huquqlari bo‘yicha o‘z nomidan majburiyatni zimmasiga olgan bank;

1.6. Ekvayring – bank kartalari orqali tovar (ish, xizmat va boshqalar) sotuvchilari bilan operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish, shuningdek, bank kartasi saqlovchisiga bevosita kassa yoki bankomat orqali naqd pul berish;

1.7. Karta hisobvarag‘i – bank kartasi orqali pul mablag‘larini tasarruf etish mumkin bo‘lgan bank hisobvarag‘i;

1.8. Pin-kod – bank kartasi saqlovchisining shaxsiy identifikatsiya raqami bo‘lib, u karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini boshqarish huquqini hamda mablag‘larni boshqarishga bank kartasining saqlovchisi tomonidan ruxsat berilganligini tasdiqlaydi;

1.9. Savdo va xizmat ko‘rsatish subyekti (keyingi o‘rinlarda “Savdo shaxobchasi”)- Ekvayer bilan tuzilgan shartnomaga asosan bank kartalari orqali tovar (ish, xizmat)larni sotuvchi yuridik shaxs va (yoki) yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs;

1.10. Slip - bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalarni tasdiqlovchi, operatsiyaning miqdori, turi, amalga oshirilgan sanasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni va ushbu hujjatni shakllantirishda foydalanilgan bank kartasi, terminal yoki bankomatni to‘g‘ri aniqlay bilish imkoniyatini beruvchi axborotni o‘zida mujassamlashtirgan qog‘oz yoki elektron shakldagi hujjat (chek);

1.12. Bankning masofaviy xizmatlari:

“SMS-banking” – yuridik va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan yakka tartibdagagi tadbirkorlarni uyali (mobil) telefon raqamlari orqali bank hisobvaraqlari aylanmalari va qoldiqlari haqidagi ma‘lumotlarni SMS shaklida xabardor qilish xizmati.

“Bank-mijoz” – Bank tizimida hisobvarag‘iga ega bo‘lgan yuridik va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmanan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan kompyuter qurilmasi orqali o‘z hisobvarag‘larini kuzatish va tasarruf etish bo‘yicha dasturiy majmua.

“Mobil banking” – Bank tizimida hisobvarag‘iga ega bo‘lgan yuridik va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmanan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan mobil qurilma orqali o‘z hisobvarag‘larini kuzatish va tasarruf etish bo‘yicha dasturiy majmua.

1.13. Bank tarifi – “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan, Bank kartalarini muomalaga chiqarishda, ular orqali Bank operatsiyalari amalga oshirilganda, ularni yangisiga almashtirib berishda hamda ularga xizmat ko‘rsatishda amaldagi Bank tarifiga ko‘ra undiriladigan komission to‘lovlar.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1 Mazkur shartnoma bank mijozlari bo‘lgan Yuridik shaxs/Yakka tartibdagi tadbirkorlarga milliy va chet el valyutasidagi bank kartalarini ochish, karta hisobvarag‘ini to‘ldirish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarni tartibga soladi.

3. MILLIY VA CHET EL VALYUTASIDAGI BANK KARTALARIDAN FOYDALANISHNING UMUMIY QOIDALARI

3.1.Karta hisobvarag‘ini to‘ldirish karta hisobvarag‘ini ochgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarning to‘lov topshiriqnomasi asosida istalgan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘idan amalga oshiriladi.

3.2. Yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritish, shu jumladan davlat boji va yig‘imlarni to‘lash bilan bog‘liq xarajatlarni faqat milliy valyutadagi korporativ bank kartalaridan foydalangan holda amalga oshirishlari mumkin;

3.3. Yuridik shaxslarning chet el valyutasidagi bank kartalaridan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida nosavdo tusdagি valyuta operatsiyalarini amalga oshirish maqsadida foydalanilishi mumkin;

3.4.Yuridik shaxslar korporativ bank kartasiga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va dividendlarni o‘tkazishga, shuningdek, korporativ bank kartalari vositasida naqd pul berilishi va (yoki) chet el valyutasini sotib olishga yo‘l qo‘yilmaydi;

3.5. Yuridik shaxslar tomonidan auksion savdolarida ishtirok etib, xaridlarni amalga oshirish uchun korporativ bank kartasidan foydalanish taqiqlanadi;

3.6. Yakka tartibdagi tadbirkorlar milliy valyutadagi bank kartalaridan O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko‘rsatish, ishlarni bajarish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, shuningdek qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa har qanday xarajatlar bo‘yicha to‘lovlarini amalga oshirishi mumkin;

3.7. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning chet el valyutasidagi bank kartalaridan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida nosavdo tusdagи valyuta operatsiyalarini amalga oshirish maqsadida foydalanilishi mumkin;

3.8. Karta hisobvarag‘idagi sarflanmay qolgan mablag‘larni talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga qaytarish to‘lov topshiriqnomasi asosida amalga oshiriladi.

3.9. Yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati qonunchilik hujjatlariga muvofiq tugatilganda uning karta hisobvarag‘idagi sarflanmay qolgan mablag‘lari talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

3.10.Korporativ bank kartasi va yakka tartibdagi tadbirkorning bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi uchun javobgarlik karta hisobvarag‘ini ochgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor zimmasida bo‘ladi.

3.11. Bank kartalarini ochish hamda foydalanishga olish va ularni almashtirish, mijozning yozma murojaatiga asosan amalga oshiriladi.

4. MIJOZNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI:

4.1.MIJOZNING HUQUQLARI:

4.1.1. Bank kartasidan foydalanish qoidalari, ular orqali operatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha to‘liq axborotni olish;

4.1.2.Bank kartasi hisobvarag‘i bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha ko‘chirma taqdim qilinishi so‘rab yozma murojaat qilish;

4.1.3. Bank kartasining hisobvarag‘idagi qoldiq mablag‘lari hamda amal qilish muddati doirasida foydalanish;

4.1.4. Bank kartalarining saqlovchilari savdo va pullik xizmat ko‘rsatish korxonalarida Bank kartalaridan foydalangan holda huquqiy me’yoriy hujatlarga muvofiq, naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish;

4.1.5. Bank kartasi bo‘yicha bajariladigan operatsiyalarga limit miqdorini belgilash;

4.1.6.“Internet to‘lov”, “SMS Banking” va “Uy Banking” kabi qo‘srimcha bank xizmatlaridan foydalanish;

4.1.7. Bank kartasi hisobvarag‘idagi ishlatilmay qolgan mablag‘larni asosiy talab qilib olinguncha depozit hisob raqamiga qaytarish;

4.1.8. Bank kartasi hisobvarag‘ini yopish orqali Bank kartasidan foydalanishdan voz kechish;

4.2. MIJOZNING MAJBURIYATLARI:

4.2.1. Bank kartasidan foydalanishda mazkur shartnomaning talablariga amal qilish;

4.2.2. Shartnoma shartlarini, Bank kartasidan foydalanish qoidalari bajarilishini ta’minalash hamda ularga qat’iy rioya qilish;

4.2.3. Bank tarifilarida belgilangan miqdorda to‘lovlarini amalga oshirish;

4.2.4. Bank kartasidan mijozning mas‘ul xodimi foydalnilishini hamda Bank kartasi Pin-kodini boshqa shaxslardan sir saqlanishini ta’minalash;

4.2.5. Bank kartalarining qoldiq mablag‘laridan oshgan miqdorda bajarilgan tranzaksiyalar yuzaga kelganda, oshgan miqdorini 15 kun ichida so‘ndirish;

4.2.6. Bank kartasi yo‘qolganligi, o‘g‘rilanganligi, shikastlanganligi yoki beruxsat foydalnilganligi to‘g‘risida ma‘lum bo‘lgan barcha xodisalar haqida 24 soat ichida Bankni yozma ravishda habardor qilish;

4.2.7. Bank kartasini olish bo‘yicha taqdim etilgan ma‘lumotlar o‘zgarganda 5 Bank ish kunida yozma ravishda xabardor qilish;

4.2.8. Shartnoma shartlari yoki Yo‘riqnomalar qoidalari buzilganda yuzaga kelgan barcha zararlarni shak-shubhasiz to‘liq qoplash;

4.2.9. Bank kartasi hisobvarag‘iga noto‘g‘ri kirim qilingan mablag‘larni qaytarish;

4.2.10. Mijoz faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘srimcha ma‘lumotlarni Bankning talabiga ko‘ra taqdim etish;

4.2.11. O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida Bank kartasi bo‘yicha amalga oshirilgan munozarali tranzaksiyalar bo‘yicha e’tirozlarni 30 kundan kechiktirmasdan Bankka yozma taqdim etish.

4.2.12. Ehtiyyotsizlik yoki e’tiborsizlik tufayli korporativ karta PIN kodini noto‘g‘ri terishi bilan qulflanib qolgan (blokirovkaga tushgan) hollarda, kartani qayta aktivlashtirish uchun tasdiqlovchi hujjatni ilova qilgan holda, kartani qulfdan chiqarish (razblokirovka qilish) bo‘yicha yozma ariza taqdim qilish. Bunda mijoz kartaning PIN-kodini bilishi lozim.

5. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. BANKNING HUQUQLARI

5.1.1. Bank quyidagi holatlarda bank kartasi orqali operatsiyalar o‘tkazishni vaqtincha to‘xtatib qo‘yish hamda bank kartasini muomaladan chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin:

- bank kartasi yoki uning rekvizitlaridan noqonuniy foydalanishni tasdiqlovchi holatlar mavjudligida;

- bank kartasidan foydalanish vakolatiga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan ishlatalganda;

- bank kartalaridan foydalanish to‘g‘risidagi shartnomada ko‘rsatilgan boshqa holatlarda;

- qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Mazkur bandda ko‘rsatilgan holatlar yuzaga kelganda, bank kartasi orqali operatsiyalarni o‘tkazishni vaqtincha to‘xtatib qo‘yish yoki bank kartasini muomaladan chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish,

5.1.2. Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazarat qoidalari (ro‘yxat raqami 2886, 2017 yil 23 may) muvofiq bank kartasining saqlovchisidan uning shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim etishini talab qilish;

5.1.3. Bank kartasi hisobvarag‘idan quyidagi hollarda mijozning roziligidiz mablag‘larni ko‘chirish:

- Bank karta hisobvarag‘idagi qoldiq mablag‘laridan oshgan miqdorda bajarilgan tranzaksiyalar yuzaga kelganda;

- Bank tarifiga ko‘ra Bank xizmatlari uchun to‘lovlarini;

- Bank kartasi hisobvarag‘iga mablag‘lar noto‘g‘ri yoki adashib kirim qilinganda;

5.1.4. O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida Bank kartasi bo‘yicha amalga oshirilgan munozarali tranzaksiyalar bo‘yicha mijoz tomonidan 30 kalendar kundan keyin taqdim qilingan e’tirozini ko‘rib chiqilishiga qabul qilmaslik;

5.1.5. Mijoz tomonidan ariza taqdim etilgan kundan boshlab 6 oydan ortiq davr ichida muomalaga chiqarilgan Bank kartasi Bankdan olib ketilmaganda, Bank tarifiga ko‘ra ko‘rsatilgan xizmat uchun undirilgan Bank daromadini qaytarmaslik va Bank kartasi bekor qilish;

5.1.6. O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqari Bank kartalari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarning xarajat qismiga limit o‘rnatishga;

5.1.7. Mijoz tomonidan shartnoma shartlari yoki Yo‘riqnomalar qoidalari buzilgan holda yuzaga kelgan barcha harajatlarni undirish;

5.2. BANKNING MAJBURIYATLARI:

5.2.1. Bank kartalaridan foydalanish qoidalari bilan mijozni va uni vakillarini tanishtirish;

5.2.2. Mijoziarning yozma murojaatlari ko‘ra, bankning qo‘shimcha bank xizmatlari sifatida “Internet to‘lov”, “SMS Banking” va “Uy banking” xizmatlaridan foydalanishni ta’minlash;

5.2.3. Mijoziarning yozma murojaatiga asosan quyidagilarni amal oshirish:

- bank karta hisobvarag‘lari bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalardan ko‘chirma taqdim etish;

- yo‘qotilgan yoki o‘g‘irlangan bank kartalari orqali operatsiyalar o‘tkazishni vaqtincha to‘xtatib qo‘yish;

- bank kartasi hisobvarag‘idagi mablag‘larni mijozning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga qaytarish;

5.2.4. Mijoz tomonidan Bank kartasi yo‘qolganligi yoki o‘g‘irlanganligi to‘g‘risida yozma ariza taqdim qilinib, Bank kartasi blokirovka qilinganidan so‘ng, yo‘qotilgan yoki o‘g‘irlangan Bank kartasi orqali bajarilgan barcha operatsiyalar bo‘yicha yo‘qotilgan pul mablag‘larini qoplab berish;

5.2.5. Qonun hujjatlarda belgilangan tartibda bank kartasi hisobvarag‘idan mablag‘larni chiqim qilish qismi bo‘yicha amaliyotlarini vaktincha to‘xtatib turish.

6. HISOB-KITOBLARNI BAJARISH SHARTLARI

6.1. Bank kartasi hisobvarag‘i _____ yuritiladi.

(UZS yoki USD)

6.2. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Bank kartasi hisobvarag‘i qaysi valyutada ochilganligiga qarab Mijoziarning to‘lov topshiriqnomasi asosida istalgan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘idan amalga oshiriladi;

6.3 Bank tomonidan mazkur shartnomaga asosan ko‘rsatilgan xizmatlar uchun, xizmat ko‘rsatilgan vaqtida amalda bo‘lgan Tariflarda belgilangan miqdorda va tartibda Bank komissiyasi olinadi.

6.4. Bank kartasi hisob raqamlari qaysi valyutada ochilganligiga qarab, Bank tarifida belgilangan stavka doirasida Bank daromadi undiriladi.

7. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Mijoziarning bank kartasiga pul mablag‘larini o‘tkazish to‘g‘risidagi to‘lov topshiriqnomalarni bajarilmaganligi uchun, har bir kechiktirilgan kun uchun 0,01 foiz miqdorida penya hisoblanadi. Bunda penyaning umumiy miqdori o‘z vaqtida so‘ndirilmagan majburiyatning 10 foizidan oshmasligi lozim;

7.2.Bank quyidagilar uchun javobgar emas:

- Mijoz tomonidan noqonuniy harakatlar sodir qilingan holda;

- Bank kartasiga xizmat ko‘rsatilishi uchinchi shaxs tomonidan rad etilganda;

- Bank kartasi vositasida xarid qilingan tovar, ish (xizmat) sifatiga;

- Bank kartasi yo‘qolganligi yoki o‘g‘irlanganligi to‘g‘risida ariza qabul qilinib, stop listga qo‘yilishidan avval Bank kartasi hisobvarag‘idan operatsiyalar amalga oshirilganda;

- internet tarmog‘i orqali tranzaksiyalar bajarilganda;

7.3. Karta hisobvarag‘idagi qoldiq mablag‘laridan oshgan miqdorda bajarilgan tranzaksiyalar yuzaga kelganda, mijoz tomonidan o‘z vaqtida so‘ndirilmagan tranzaksiyalarga har bir kechiktirilgan kun uchun 0,01 foiz miqdorida penya hisoblanadi. Bunda penyaning umumiy miqdori o‘z vaqtida so‘ndirilmagan majburiyatning 10 foizidan oshmasligi lozim;

7.4..Mijoz “Korporativ Internet Banking” dasturiy majmualari orqali yuboriladigan qaydnomalardagi ma’lumotlarning to‘g‘riligiga va asl qog‘oz bosmasi bilan muvofiqligiga hamda asl qog‘oz bosmasini saqlanishiga.

8. Korrupsiyaga qarshi shartlar

8.1. Taraflar ushbu shartnomada bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o‘z faoliyatida korruption xarakatlarni to‘liq ta’qilash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag‘lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta’minalash, ma’muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish, raqobat va boshqa afzalliklarni ta’minalashni to‘liq rad etadi. Tomonlar o‘z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo‘lsa) talablariga amal qiladilar.

8.2. Taraflar ushbu shartnomada bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish chog‘ida na o‘zları, na ijroiya organi, na ularning masabdar shaxlari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdar shaxslari) korruption to‘lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) har qanday korruption to‘lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo‘lmashklarini kafolatlaydi.

8.3. Mazkur bo‘limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo‘lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Taraf yozma xabarnomada ushbu bo‘limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart.

Yozma xabarnomalar “O‘zsanoatqurilishbank”

ATB tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korruptionaga qarshi kurashish “Komplaens ishonch liniyasi” kanallari (**tel:0-800-120-8888, veb sayt www.sqb.uz, Telegram messenger SQB AntiKor (@sqbantikor_bot)**) orqali amalga oshiriladi.

8.4. Ushbu bo‘lim qoidalari taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa tarafning qoidabuzarliklarni ko‘rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma’lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to‘liq bekor qilishga haqli.

8.5. Mazkur shartnomani korruptionaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash taraflar tomonidan yozma ravishda tasdiqlanagan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

9.Sanksiyalar bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish bo‘yicha shartlar

9.1 Ushbu Shartnomada bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda tomonlar ularning har biri o‘z faoliyatida iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bo‘yicha xalqaro qonunchilikka rioya qilishga qaratilgan siyosat va tartiblarga rioya qilishini va ularni qo‘llab-quvvatlashini tan oladi va tasdiqlaydi.

9.2. Mijozning hisobvarag‘iga kelib tushgan mablag‘larni kiritish yoki mijoz topshirig‘iga asosan hisobvarag‘idan o‘tkazishda Bank tomonidan iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar to‘g‘risidagi xalqaro qonun hujjatlariga rioya etilishiga qaratilgan tegishli choralar ko‘rish (tekshirish va o‘rganish) talab etilsa, Bank mazkur amaliyotni zarur bo‘lgan davrga to‘xtatib qo‘yishga haqli.

9.3. Bank - mijoz va uning kontragenti bilan tuzilgan bitim bo‘yicha har qanday ma’lumot yoki hujjatlarni (*kontragent to‘g‘risidagi ma’lumotlar, uning to‘liq rekvizitlari, uning affillangan shaxslari ro‘yxati, uning aksiyadorlari/muassisalar tarkibi, uning ijro organi, mansabdar shaxslari, xodimlari, yoki to‘g‘risida, jo‘natish hujjatlari, mahsulotning spesifikatsiyasi, tashuvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar va boshqa zarur ma’lumotlar*) ushbu bitimning iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bo‘yicha xalqaro qonunchilikka muvofiqligini tekshirishga haqli;

9.4. Eksport qilish hisobidan kelib tushgan mablag‘larni mijoz hisobvarag‘iga kirish qilinishi, shuningdek import qilish hisobidan pul mablag‘larini chiqim qilishda uning kontragenti, kontragentga xizmat ko‘rsatuvchi bank, ularning affillangan shaxslari, kontragent aksiyadorlari/muassisalar, uning ijro organi, ularning mansabdar shaxslari yoki xodimlariga, eksport/import qilinayotgan tovarlar/xizmatlarga nisbatan sanksiyalar mavjudligi aniqlanganda, Bank ushbu operatsiyani amalga oshirishni bir tomonlama rad etishga haqli.

9.5 Agar mijoz tomonidan taqdim etilgan tashqi savdo shartnomalarida rejalshtirilgan amaliyotlarning sanksiyaviy xatari Bank tomonidan yuqori deb topilsa, Bank ushbu amaliyotni amalga oshirayotgan mijozdan xalqaro e’tirof etilgan va reytingga ega bo‘lgan yuridik kompaniyadan iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar bo‘yicha xalqaro qonunchilik talablariga muvofiqligi to‘g‘risida huquqiy xulosa talab qilishga haqli. Ushbu huquqiy xulosa Bank uchun amaliyotni bajarish uchun majburiy hisoblanmaydi. Bank mazkur amaliyotni o‘tkazishda mustaqil hisoblanadi.

Mijoz tomonidan yuridik xulosani olishda qilingan harajatlar Bank tomonidan qoplanmaydi.

9.6 Mijoz faoliyati sanksiya bo'yicha xalqaro qonunchilikka nomuvofiq bo'lgan taqdirda yoki Bank tomonidan mijozning tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish rad etilgan hollarda, Bank 5 (besh) ish kuni ichida Mijozni qoidalar buzilganligini tasdiqlovchi faktlarni/materiallarni ilova qilgan holda yozma ravishdagi xabarnomani quyidagi pochta manziliga yuboradi:

Bank: _____

Mijoz: _____

9.7. Mijoz ushbu shartlarning 1.6-bandiga asosan yozma xabarnomada qayd etilgan qoidalarni buzilganlik faktlarini/materiallarini rad etuvchi asoslari mavjud bo'lsa, bu haqida Bankni xabarnoma olingan kunidan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida ularni Bankka taqdim etishga haqlidir.

9.8. Mijoz o'z faoliyatini amalga oshirishda uning kontragenti, kontragentga xizmat ko'rsatuvchi bank, ularning affillangan shaxslari, kontragent aksiyadorlari/muassisalar, uning ijro organi, ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlari sanksiyalar ro'yxatiga kiritilmaganligini kafolatlaydi.

9.9. Mijoz eksport qilish hisobidan kelib tushgan mablag'lar bo'yicha tovar va xizmatlarga, shuningdek import qilish hisobidan pul mablag'larini jo'natishda tovar va xizmatlar sanksiyaga tushgan tovarlar ro'yxatiga kiritilmaganligini kafolatlaydi.

10. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

10.1. Shartnoma shartlari bajarilishi bo'yicha yuzaga keladigan baxs va kelishmovchiliklar taraflar tomonidan muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

10.2. Agarda ko'rsatib o'tilgan nizo va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal etilmasa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosan Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan hal etiladi.

10.3. Taraflar dalil sifatida baxs yoki kelishmovchiliklarni hal qilishda amalga oshirilgan operatsiyalarni o'zida saqlovchi qurilmalardagi ma'lumotlarga tayanishi mumkin.

10.4. Yozma murojaatlar, taraflarning biri imzo qo'yib qabul qilib olganligi yoki manziliga pochta orqali yuborilganligi to'g'risida pochta kvitansiyasi mavjud bo'lganda, taraflar tomonidan qabul qilib olingan deb hisoblanadi.

11. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI, UNI BEKOR QILISH VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH TARTIBI

11.1. Mazkur shartnoma belgilangan tartibda akseptlangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va bekor qilinmaguniga qadar amal qiladi.

11.2. Mazkur shartnoma mijoz tomonidan yozma ravishda murojaat qilgan har qanday vaqtda, shuningdek mijoz faoliyati belgilangan tartibda tugatilgan taqdirda bekor qilingan hisoblanadi.

11.3. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan, u bilan bog'liq barcha munosabatlар O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

*20 yil “ ” dagi №
mijozlarga korporativ bank kartalaridan
foydalanish bo‘yicha bo‘yicha ommaviy oferta
shartnomasiga
1-ilova*

**Mijozlarga milliy va chet el valyutasidagi bank kartalari orqali xizmat ko‘rsatish bo‘yicha
OMMAVIY OFERTA ShARTNOMASI**

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
BXO/BXM
boshqaruvchisiga**

ARIZA

Sizdan, quyidagi bank xizmatlaridan foydalanishimda amaliy yordam berishingizni so‘rayman:

Ish xaqi loyixasi :

Humo

Uzcard

Mas’ul shaxs: F.I.Sh.

(rahbarning
imzosi)

Uzcard korporativ
karta

Mas’ul shaxs: F.I.Sh.

(rahbarning
imzosi)

Humo korporativ karta

Mas’ul shaxs: F.I.Sh.

(rahbarning
imzosi)

VISA Business halqaro
plastik karta:
milliy valyutada
AQSh Dollarda

Mas’ul shaxs: F.I.Sh.

(rahbarning
imzosi)

To‘lov terminali:

Uzcard

Humo



Visa

Mas’ul shaxs: F.I.Sh.

(rahbarning
imzosi)



Virtual terminal (E-
POS):
Uzcard
Humo
Visa
QR to‘lovlar tizimida

Mas’ul shaxs: F.I.Sh.

(rahbarning
imzosi)

Mazkur arizani to‘ldirish jarayonida, mijozlarning bank hisobvarag‘lariga masofaviy xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha bankning rasmiy saytida (www.uzpsb.uz) joylashtirilgan ommaviy oferta shartnomasi bilan tanishdim hamda ushbu ommaviy oferta shartnomasining barcha shartlarini hamda to‘lovni amalga oshirayotgan kundagi Bank Tariflarida belgilangan miqdorda to‘lovlarni to‘lashni istisno qilmasdan so‘zsiz qabul qilaman.

20____y. "___"

_____ (rahbarning imzosi)

M.O‘. (muhr mayjud bo ‘lganda)

Приложение _____
к Рекомендациям по заключению договоров банковского
счета и других договоров для оказания услуг по счетам
клиента в системе АКБ "Узпромстройбанк"

ДОГОВОР ПУБЛИЧНОЙ ОФЕРТЫ

Об использовании банковских карт в национальной и иностранной валюте клиентам

Настоящий договор публичной оферты (далее – “Офера”) является официальной публичной офертой, направленной юридическим лицам для заключения договора об использовании Корпоративных банковских карт в соответствии со статьями 367 и 369 Гражданского кодекса Республики Узбекистан.

Договор публичной оферты считается заключённым (акцептированным) с момента обращении Клиента заявлением об открытии банковского счета или полного заполнения в установленном порядке приложенного к настоящему договору заявления, и означающих безоговорочное принятие Клиентом всех условий настоящего договора публичной оферты и оплату платежей без каких-либо ограничений в соответствии с Тарифами Банка.

1. ОПРЕДЕЛЕНИЯ

1.1. Корпоративная банковская карта - позволяет своему хранителю, то есть уполномоченному сотруднику юридического лица или индивидуальному предпринимателю распоряжаться денежными средствами на карточном счёте;

1.2. Терминал - устройство или программное обеспечение, позволяющее держателю банковской карты совершать платёжные операции и формировать слипы (в бумажном или электронном виде) по выполненным операциям;

1.3. Транзакция - платежи, осуществлённые держателем банковской карты за приобретённые товары, работы и услуги;

1.4. Блокирование банковской карты – меры, принятые Банком приостанавливающие или прекращающие функционирование банковской карты;

1.5. Эмитент – банк, выпускающий банковскую карту, берущий на себя обязательства от своего имени в отношении прав хранителей и эквайеров банковских карт на осуществление расчётов с использованием банковских карт;

1.6. Эквайринг - расчёты по сделкам с продавцами товаров (работ, услуг и т.п.) по банковским картам, а также выдача наличных денежных средств непосредственно держателю банковской карты через кассу или банкомат;

1.7. Карточный счет — банковский счёт, на который можно перевести средства через банковскую карту;

1.8. PIN-код – Персональный идентификационный номер держателя банковской карты, который подтверждает право распоряжения денежными средствами на карточном счёте и разрешение держателя банковской карты на управление денежными средствами;

1.9. Предприятие торговли и обслуживания (далее «**Торговая точка**») - Юридическое лицо, реализующее товары (работы, услуги) с использованием банковских карт на основании договора, заключённого с приобретателем и (или) физическим лицом, осуществляющим предпринимательскую деятельность без статуса юридического лица;

1.10. Слип - бумажный или электронный документ (чек), подтверждающий совершение операции по банковской карте, содержащий сведения о сумме, виде и дате операции, а также информацию, позволяющую правильно идентифицировать используемую банковскую карту, терминал или банкомат при создании данного документа (чека);

1.12. Дистанционные банковские услуги:

- "SMS-банкинг" – услуга посредством направления на номер мобильного телефона в виде SMS сообщений информацию об оборотах и остатках средств на банковских счетах юридических лиц и индивидуальных предпринимателей без образования юридического лица.

- "Интернет банкинг" – программный комплекс для отслеживания и распоряжения своими счетами через компьютерное устройство юридическими лицами и индивидуальными

предпринимателями без образования юридического лица при наличии счетом в банковской системе.

- "Мобильный банкинг" – программный комплекс для отслеживания и распоряжения своими счетами через мобильное устройство юридическими лицами и индивидуальными предпринимателями без образования юридического лица при наличии счетом в банковской системе.

1.13. Тарифи Банка – Комиссионные платежи взимаемые в соответствии с действующим банковским тарифом при выпуске банковских карт, осуществлении банковских операций через них, замене их новыми и оказании им услуг, утвержденное Правлением АКБ «Узпромстройбанк».

2. ПРЕДМЕТ ДОГОВОРА

2.1. Настоящий договор регулирует отношения, связанные с открытием банковских карт в национальной и иностранной валюте, пополнением карточного счёта и их использованием для юридических лиц/индивидуальных предпринимателей, являющихся клиентами Банка.

3. ОБЩИЕ ПРАВИЛА ПОЛЬЗОВАНИЯ КОРПОРАТИВНОЙ БАНКОВСКОЙ КАРТОЙ

3.1. Пополнение карточного счёта осуществляется с любого депозитного счёта до востребования на основании платёжного поручения юридического лица или индивидуального предпринимателя, открывшего карточный счёт;

3.2. Юридические лица могут осуществлять расходы, связанные с деятельностью на территории Республики Узбекистан, в том числе с оплатой государственных пошлин и сборов, только с использованием корпоративных банковских карт в национальной валюте;

3.3. Валютные банковские карты юридических лиц могут использоваться для некоммерческих валютных операций за пределами территории Республики Узбекистан;

3.4. Не допускается перечисление заработной платы и приравненных к ней выплат, пенсий, пособий, стипендий и дивидендов на корпоративную банковскую карту юридических лиц, а также выдача наличных денежных средств и (или) покупка иностранной валюты с использованием корпоративных банковских карт;

3.5. Юридическим лицам запрещается участвовать в аукционах и использовать корпоративную банковскую карту для совершения покупок;

3.6. Индивидуальные предприниматели могут осуществлять расчёты с банковских карт в национальной валюте за производство, торговлю, обслуживание, выполнение работ, а также любые другие расходы, предусмотренные законодательством;

3.7. Валютные банковские карты индивидуальных предпринимателей могут использоваться для некоммерческих валютных операций за пределами территории Республики Узбекистан;

3.8. Неизрасходованные средства на карточном счёте будут возвращены на депозитный счет до востребования на основании платёжного поручения.

3.9. При прекращении деятельности юридического лица или индивидуального предпринимателя в соответствии с законодательством неизрасходованные денежные средства на карточном счёте переводятся на депозитный счёт до востребования.

3.10. Ответственность за законность операций, осуществляемых с использованием корпоративных банковских карт и банковских карт индивидуального предпринимателя, несёт юридическое лицо или индивидуальный предприниматель, открывшие карточный счёт.

3.11. Банковские карты открываются, используются и заменяются на основании письменного заявления клиента.

4. ПРАВО И ОБЯЗАННОСТИ КЛИЕНТА:

4.1. Клиент имеет право:

4.1.1. Получать полную информацию о правилах использования Корпоративной банковских карт и совершающихся по им операциях;

4.1.2. Получать выписку со своего карточного счета по письменному заявлению в Банк;

4.1.3. Осуществлять операции в течении срока действия Корпоративной банковской карты и в пределах остатка средств на карточном счёте;

4.1.4. Держатели Корпоративных банковских карт осуществляют безналичные расчёты в соответствии с правовыми документами с использованием банковских карт на предприятиях торговли и платного обслуживания;

- 4.1.5. Установить лимит на операции, выполняемые по Корпоративной банковской карте;
- 4.1.6. Пользоваться дополнительными банковскими услугами, такими как «Интернет-платёж», «SMS-банкинг», «Дом Банкинг»;
- 4.1.7. Возвращать неиспользованные средства со счета Корпоративной банковской карты на основной депозитный счет до востребования;
- 4.1.8. Отказаться от использования Корпоративных банковских карт с последующим закрытием карточного счета.

4.2. Клиент обязуется:

- 4.2.1. Соблюдать требования настоящего Договора при использовании Корпоративной банковской карты;
- 4.2.2. Обеспечивать выполнение условий договора, правил пользования Корпоративной банковской картой и неукоснительно соблюдать их;
- 4.2.3. Осуществлять платежи в соответствии с Тарифами Банка;
- 4.2.4. Обеспечивать использование Корпоративной банковской карты уполномоченным сотрудником Клиента, а также не разглашение третьим лицам ПИН-кода Корпоративной банковской карты;
- 4.2.5. В течении 15 (пятнадцать) дней погасить сумму транзакций, произведенных сверх активного остатка карточного счета;
- 4.2.6. При утери/краже/порчи или случаях несанкционированного доступа к Корпоративной банковской карте письменно уведомить об этом Банк в течении 24 (двадцать четыре) часов;
- 4.2.7. В случае изменения информации предоставленной для получения Корпоративной банковской карты, информировать об этих изменениях Банк в течении 5 (пяти) рабочих дней с момента возникновения изменений в письменной форме.
- 4.2.8. Возместит все убытки возникших в связи нарушением условий договора и правил Инструкции;
- 4.2.9. Возвратить Банку денежные средства, ошибочно зачисленные на карточном счёту;
- 4.2.10. По требованию Банка предоставить дополнительные сведения связанные с его деятельностью;
- 4.2.11. Предоставить в письменной форме возражения по спорным транзакциям, совершенным по Корпоративной банковской карте за пределами территории Республики Узбекистан, не позднее 30 (тридцати) дней с момента их совершения.
- 4.2.12. При автоматическом блокировании Корпоративной банковской карты вследствие неправильных попыток набора ПИН-кода, приложив подтверждающий документ для повторной активации карты, обратиться письменном заявлением в Банк о разблокирования карты. В этом случае Клиент должен знать ПИН-код карты.

5. ПРАВО И ОБЯЗАННОСТИ БАНКА

5.1. Банк имеет право:

- 5.1.1. Принять решение о приостановке проведения операций по банковской карте и выведении банковской карты из оборота в следующих случаях:
 - при присутствии фактов, подтверждающих незаконное использование банковской карты или её реквизитов;
 - использовании банковской карты лицами, неуполномоченными на это;
 - в других случаях, указанных в договоре об использовании банковской карты;
 - в других случаях, предусмотренных законодательством;
- При наступлении обстоятельств, указанных в настоящем пункте, принят решенит о временном приостановлении операций по банковской карте или изъятии банковской карты из обращения,
- 5.1.2. Требовать от держателя банковской карты предъявления документа, удостоверяющего личность, в соответствии с Внутренними правилами контроля по вопросам противодействия легализации доходов, полученных преступным путём, финансированию терроризма и финансированию распространения оружия массового поражения в коммерческих банках (рег.№ 2886, 23 мая 2017 г.);
- 5.1.3. Списывать с карточного счёта средства без согласия Клиента в следующих случаях:
 - суммы транзакций, произведенных сверх активного остатка счёта банковской карты;

- платежи за услуги Банка в соответствии с Тарифами Банка;
- средства, неправильно или ошибочно зачисленные на счёт банковской карты.

5.1.4. Не принимать к рассмотрению возражения Клиента по спорным транзакциям, совершенным по Корпоративной банковской карте за пределами территории Республики Узбекистан, представленные по истечении 30 дней;

5.1.5. Не возмещать доходы Банка, удержаные за оказанные услуги в соответствии Тарифами Банка, а также аннулировать карту в случае невостребования Клиентом эмитированной банковской карты по истечении 6 месяцев с даты подачи заявления на предоставление карты;

5.1.6. Устанавливать лимит по части расходов при совершении операций с банковскими картами за пределами территории Республики Узбекистан;

5.1.7. Взыскать все расходы, понесённые в случае нарушения Клиентом условий договора или правил Инструкции;

5.2. Банк обязуется:

5.2.1. Ознакомить Клиента и его представителей с правилами использования Корпоративных банковских карт;

5.2.2. По письменному заявлению Клиента, обеспечить использования услуг «Интернет-платёж», «SMS-банкинг», «Дом Банкинг» в качестве дополнительных банковских услуг Банка;

5.2.3. Осуществлять следующее по письменному обращению Клиента:

- выдавать выписки по совершенным операциям со счетов банковской карты;

- временно приостанавливать действие утерянных или украденных банковских карт;

- перечислять средства со счёта банковской карты на депозитный счёт до востребования Клиента;

5.2.4. Возмещать денежный ущерб по всем транзакциям, совершенным с утерянной или украденной банковской карты после того, как Клиент подал письменное заявление об утере или краже банковской карты и блокировании банковской карты;

5.2.5. Временно приостанавливать операции по части расходов денежных средств со счётов банковской карты в порядке, установленном законодательством.

6. ПОРЯДОК ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ РАСЧЁТОВ

6.1. Операции по карточному счету банковских карт ведется _____.
(UZS или USD)

6.2. Согласно действующему законодательству Республики Узбекистан, расчёты осуществляются с любого депозитного счёта до востребования на основании платёжного поручения Клиента, в зависимости от валюты, в которой был открыт счёт банковской карты;

В соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан, банковские карточные счета пополняются в безналичной форме с основного депозитного счета до востребования Клиента в зависимости от валюты, в которой открыть счет;

6.3. За оказываемые Банком услуги согласно настоящего договора, банковская комиссия взимается в размере и в порядке, согласно действующим Тарифам Банка на момент оказания услуг.

6.4. В зависимости от валюты, в которой открыт карточный счет банковской карты, доход Банка взыскивается в пределах ставки, установленной Тарифом Банка.

7. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ СТОРОН

7.1. За невыполнение поручений Клиента по переводу средств на Корпоративную банковскую карту, взимается штраф в размере 0,01 процента за каждый день просрочки. В этом случае общая сумма неустойки не должна превышать 10% от неоплаченного в срок обязательства;

7.2. Банк освобождается от ответственности в нижеследующих случаях, за:

- Неправомерные действия Клиента;

- Отказ третьей стороны в обслуживании Корпоративных банковских карт;

- Качество товаров, работ (услуг) приобретённых по Корпоративной банковской карте;

- Произведенные транзакций по Корпоративной банковской карте до момента получения письменного оповещения о краже или утере Корпоративной банковской карты и внесении её стоп-лист;

- Произведенные транзакции через интернет сети;

7.3. За просрочку задолженности возникшие по транзакциям, произведенных сверх активного остатка карточного счета, взимается пена в размере 0,01 процента за каждый день просроченной задолженности, не погашенные Клиентом в установленный срок. Общая сумма пени не должна превышать 10 процентов от суммы неоплаченного обязательства в установленный срок;

7.4. Достоверность информации по платёжным ведомостям, отправляемым через программный комплекс “Корпоративный Интернет банкинг” Банка, и соответствие содержимого с бумажном носителем, а также сохранность бумажного носителя.

8 . АНТИКОРРУПЦИОННАЯ ОГОВОРКА

8.1. При исполнении своих обязательств по настоящему Договору стороны признают и подтверждают, что в своей деятельности каждая из них исходит из полного неприятия коррупции, полного запрета коррупционных действий и совершения выплат за содействие (прямое либо косвенное) в любой форме, в том числе в форме получения/предоставления денежных средств, ценностей, иного имущества или услуг имущественного характера, иных имущественных прав, независимо от цели, включая упрощение административных и иных процедур, обеспечение более быстрого решения тех или иных вопросов, предоставление конкурентных и иных преимуществ. Стороны руководствуются в своей деятельности применимым законодательством, а также разработанными на его основе политиками и процедурами, направленными на противодействие коррупции (при наличии).

8.2. Стороны гарантируют, что при исполнении своих обязательств по настоящему Договору ни они, ни их исполнительный орган, ни их должностные лица или их работники не будут предлагать, предоставлять, давать согласие на предоставление каких-либо коррупционных выплат любым лицам (включая, помимо прочего, частных лиц, коммерческих организаций и государственных должностных лиц), а также не будут добиваться получения, принимать или соглашаться принять от какого-либо лица (прямо или косвенно) любые коррупционные выплаты.

8.3. В случае нарушения каких-либо условий настоящего раздела, соответствующая сторона обязуется уведомить об этом другую сторону в письменной форме в течение 5 (пяти) рабочих дней со дня возникновения таких нарушений. В письменном уведомлении сторона обязана сослаться на факты или предоставить материалы, достоверно подтверждающие нарушение каких-либо положений настоящего раздела.

Письменные уведомления между сторонами осуществляется посредством каналов «Линия доверия комплаенс» (тел:0-800-120-8888, веб сайт www.uzpsb.uz, Telegram мессенджер SQB AntiKor (@sqbantikor_bot) по противодействию коррупции для физических и юридических лиц, созданных АКБ «Узпромстройбанк».

8.4. В случае подтверждения факта нарушения одной Стороной положений настоящего раздела и/или неполучения другой Стороной информации об итогах рассмотрения уведомления о нарушении, другая Сторона имеет право приостановить или расторгнуть настоящий Договор в одностороннем порядке.

8.5. Сторона, расторгнувшая настоящий договор на основании антикоррупционных условий, вправе требовать возмещения реального ущерба, причинённого таким расторжением. Возмещение ущерба осуществляется в сроки и в размерах, установленных в акте, письменно утверждённом обеими сторонами.

9. Требования по управлению с санкционными рисками.

9.1 При выполнении своих обязательств по настоящему Соглашению стороны признают и подтверждают, что каждая из них будет следовать и поддерживать политику и процедуры, направленные на соблюдение в своей деятельности норм международного права об экономических и финансовых санкциях.

9.2. В случае необходимости принятия Банком соответствующих мер (проверки и изучения), направленных на соблюдение международно-правовых документов об экономических или финансовых санкциях зачисление денежных средств на счет клиента, или перечисление их со счета Клиента на основании его поручения, Банк право приостановить эту операцию на необходимый на то срок.

9.3. Банк вправе проверить любую информацию или документы касательно сделки, заключённой между клиентом и его контрагентом (сведения о контрагенте, его полные реквизиты, список его аффилированных лиц, состав его акционеров/учредителей, его исполнительный орган,

должностные лица, работники, о грузе, товаросопроводительные документы, спецификацию товара, информацию о перевозчике и другую необходимую информацию) на соответствие данной сделки международному законодательству об экономических и финансовых санкциях;

9.4. Банк вправе не зачислять денежные средства на счёт клиента, поступивших за счёт экспорта, а также отправку денежных средств по поручению клиента по импорту товаров/услуг при установлении наличия Банком санкций в отношении контрагента клиента, банка, обслуживающего контрагента, их аффилированных лиц, акционеров/учредителей контрагента, исполнительного органа, их должностных лиц или работников, импорта/экспорта товаров/услуг находящихся в перечне санкционных запретов, Банк одностороннем порядке может отказать в проведении данной операции.

9.5 При необходимости Банк вправе затребовать от клиента предоставления юридического заключения по проводимой сделке международно-признанной, имеющей рейтинг юридической фирмы о соблюдении требований международного законодательства об экономических или финансовых санкциях, если данной сделке Банком присвоен высокий санкционный риск.

Данное заключение не является основанием для проведения операции. Банк самостоятельно принимает решение о проведении этой операции.

Расходы клиента, связанные с получением юридического заключения банком не возмещаются.

9.6 В случае несоответствия деятельности Клиента международному законодательству о санкциях или в случаях отказа Банка в проведении внешнеторговых операций Клиента, Банк в течение 5 (пяти) рабочих дней направляет Клиенту письменное уведомление с приложением фактов /материалы, подтверждающие нарушение правил, на следующий почтовый адрес:

Банк: _____

Клиент: _____

9.7. При наличии у клиента оснований для отклонения фактов/материалов нарушения в соответствии пункта 1.6, указанных в письменном уведомлении, клиент вправе представить их в Банк в течение 3 (трех) рабочих дней с даты получения извещения.

9.8. Клиент гарантирует, что его контрагент, банк, обслуживающий контрагента, их аффилированные лица, акционеры/учредители контрагента, его исполнительный орган, их должностные лица или работники, товары/услуги не включены в санкционный список.

9.9. Клиент гарантирует, что денежные средства полученные от экспорта товаров и услуг, а также отправка денежных средств за счёт импорта товаров и услуг, не входят в список санкционных запретов.

10. ПОРЯДОК РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ

10.1. Все споры и разногласия, вытекающие из настоящего договора, разрешаются путём переговоров между сторонами.

10.2. В случае неурегулирования споров и разногласий между сторонами путём переговоров, они подлежат разрешению в Ташкентском межрайонном экономическом судом в порядке, установленном действующим законодательством Республики Узбекистан.

10.3. Стороны соглашаются признать информацию, содержащуюся в их запоминающих устройствах, доказательством при разрешении спора.

10.4. Письменные уведомления сторон считаются направленными надлежащим образом, при наличии почтовой квитанции, подтверждающей, что она была отправлена по адресу или вручены под расписку одной из сторон.

11. СРОК ДЕЙСТВИЯ ДОГОВОРА, ПОРЯДОК ИЗМЕНЕНИЯ И РАСТОРЖЕНИЯ

11.1. Настоящий договор вступает в силу со дня его акцептирования в установленном порядке и действует до момента его расторжения.

11.2. Настоящий договор считается расторгнутым в любое время по письменному заявлению Клиента, а также в случае прекращения деятельности Клиента в установленном порядке.

11.3. Все отношения, не предусмотренные настоящим договором, регулируются действующим законодательством Республики Узбекистан.

Приложение №1
к договору публичной оферты об
использования корпоративных банковских
карт
№_____ от «____» _____ 2020 года

филиалу
АКБ "Узпромстройбанк"

ЗАЯВЛЕНИЕ

Прошу Вас оказать практическую помощь в использовании следующих банковских услуг:
Зарплатный проект : ответственное лицо: Ф.И.О. (подпись)

<input type="checkbox"/> Uzcard Humo	_____	руководителя)
<input type="checkbox"/> Uzcard Корпоративная карта	ответственное лицо: Ф.И.О. _____	(подпись руководителя) _____
<input type="checkbox"/> Хумо корпоративная карта	ответственное лицо: Ф.И.О. _____	(подпись руководител) _____
<input type="checkbox"/> VISA Business Международная International пластиковая карта: в долларах США	ответственное лицо: Ф.И.О. _____	(подпись руководителя) _____
<input type="checkbox"/> Международный платёжный терминал VISA	ответственное лицо: Ф.И.О. _____	(подпись руководителя) _____
<input type="checkbox"/> Межбанковский POS платёжный терминал UZCARD	ответственное лицо: Ф.И.О. _____	(подпись руководителя) _____
<input type="checkbox"/> UZCARD межбанковский (E-POS виртуальный) платёжный терминал	ответственное лицо: Ф.И.О. _____	(подпись руководителя) _____
<input type="checkbox"/> Хумо межбанковский POSплатёжный терминал	ответственное лицо: Ф.И.О. _____	(подпись руководителя) _____
<input type="checkbox"/> Хумо Национальный межбанковский (E-POS виртуальный) платёжный терминал	ответственное лицо: Ф.И.О. _____	(подпись руководителя) _____
<input type="checkbox"/> QR-код межбанковского	ответственное лицо: Ф.И.О. _____	(подпис руководителя) _____



платёжного
терминала

В процессе заполнения данного заявления я ознакомился с договором публичной оферты на оказание дистанционных услуг по обслуживанию банковских счетов клиентов размещенных на официальном сайте Банка (www.sqb.uz), и я безоговорочно принимаю все условия настоящего публичного договора оферты и оплату платежей согласно действующими Тарифами Банка на момент оказания услуг.

"___" 20___ г.

(подпись руководителя)